



"TASDIQLAYMAN"

Sirdaryo viloyati

Statistika boshqarmasi boshlig'i

U.S.Elмурatov

2025-yil "16" *aprel*

Sanoat va energetika statistikasi bo'limi

NIZOMI

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom Sirdaryo viloyati Statistika boshqarmasi Sanoat va energetika statistikasi bo'limining (keyingi o'rinlarda bo'lim deb ataladi) maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, uning faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Bo'lim O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Statistika ishlarini tashkil etish va yuritish tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 24-fevraldagi PF-27-son Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2025-yil 24-fevraldagi PQ-75-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan va Milliy statistika qo'mitasi, Sirdaryo viloyati Statistika boshqarmasi (keyingi o'rinlarda boshqarma deb ataladi) tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi.

3. Bo'lim o'z faoliyati davomida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuni va boshqa qonunlariga, Oliy Majlisning qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasi qarorlari va farmoyishlariga, "O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi to'g'risida"gi nizomga, mazkur nizomga, shuningdek, boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

4. Bo'lim sanoat va energetika statistikasi bo'yicha faoliyatini shahar va tumanlar statistika bo'limlari (keyingi o'rinlarda hududiy statistika bo'limlari deb ataladi) bilan o'zaro hamkorlikda amalga oshiradi.

5. Xalqaro darajada tavsiya etilgan Statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (GSBPM – The Generic Statistical Business Process Model) talablarini milliy statistika tizimiga joriy qilish maqsadida ishlab chiqilgan Statistika ma'lumotlarini ishlab chiqishning milliy modelining barcha bosqichlarida bevosita va bilvosita ishtirok etadi.

6. Bo'lim o'z faoliyatini Statistika boshqarmasi boshlig'i rahbarligida amalga oshiradi. Bo'lim o'z vakolati doirasiga kiruvchi masalalar bo'yicha Statistika boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosariga bo'ysunadi.

2-bob. Bo'limning vazifalari va funksiyalari

7. Quyidagilar bo'limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

a) sanoat statistikasi bo'yicha yagona siyosatni ishlab chiqish va bajarish, statistikani tashkil qilishning samarali tizimini ta'minlash va davlat statistika tizimini muvofiqlashtirish va funksional tartibga solish sohasida;

Statistika dasturi, Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturi, Statistika boshqarmasining ish rejalarini o'z vaqtida shakllantirilishida ishtirok etish; statistik ma'lumotlar foydalanuvchilari talabini o'rgangan holda uzoq muddatli maqsadlar va yo'nalishlar bo'yicha statistik ko'rsatkichlarni joriy etib borish;

Statistika dasturining sanoat va energetika statistikasiga oid qismi bo'yicha takliflar ishlab chiqish va taqdim etish;

sanoat va energetika statistikasi sohasida rasmiy statistika prinsiplari va xalqaro standartlarga javob beradigan yagona statistika uslubiyotiga rioya etish, xalqaro tavsiyalar, shu jumladan sifatni boshqarishning milliy modellari (GSIM, GSBPM, GAMSO) hamda xorijiy davlatlarning ilg'or tajribalarini joriy etish;

ishlab chiqiladigan me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalariga bo'lim vakolati doirasidagi takliflar ishlab chiqishda ishtirok etish.

b) xalqaro standartlarga javob beradigan yagona statistik uslubiyotni va davlat statistika kuzatuv shakllarini ishlab chiqish, tasdiqlash va joriy etish sohasida:

sanoat va energetika statistikasi ma'lumotlarini yig'ish va qayta ishlashning zamonaviy metodologiyasi va metodikalarini keng joriy etish yo'li bilan statistik kuzatuvlar tizimini qabul qilingan xalqaro amaliyotga yanada moslashtirishni amalga oshirish;

sanoat va energetika statistikasi sohasida xolis, sifatli va dolzarb hisobot ma'lumotlarini tayyorlashni;

foydalanuvchilarning statistik ma'lumotlarga bo'lgan talabiga muvofiq, sanoat va energetika statistikasi sohasi bo'yicha rivojlanayotgan xorijiy tajribani o'rganishni umumlashtirish va tarqatish;

sanoat va energetika statistikasi bo'yicha statistika hisobotlari tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash.

d) sanoat va energetika statistikasiga oid hodisalar, jarayonlar va ularning natijalari to'g'risidagi statistik axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, to'plash saqlash, umumlashtirish, tahlil qilish va e'lon qilish sohasida:

Statistika dasturining sanoat statistikasiga oid qismini bajarilishini ta'minlash.

Viloyat, hududlar, iqtisodiyot tarmoqlari va sektorlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish davlat dasturlari bajarilishi bo'yicha statistika kuzatuvlarini bo'lim vakolati doirasida tashkil etish va amalga oshirish;

sanoat statistikasiga oid statistika hisobotlarini elektron ko'rinishda zarur hollarda qog'oz ko'rinishida yig'ish, so'rovlarni va boshqa kuzatuvlarni tashkil etish;

sanoat va energetika statistikasiga oid ko'rsatkichlarining statistik hisobini yuritish, viloyat bo'yicha muhim jarayonlarining birlamchi statistik tahlilini amalga oshirish;

statistik hisobot ko'rsatkichlarini tezkorligi, ishonchliligi va holisligini hamda statistik ma'lumotlarning shaffofligi va ochiqqligini kengaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;

xo'jalik yurituvchi subyektlarga sanoat va energetika statistikasiga oid statistika hisoboti ko'rsatkichlarini ishonchli taqdim etishda har tomonlama ko'maklashish;

sanoat va energetika statistikasi sohasiga oid statistik ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash;

qonunchilikka muvofiq, bo'lim ish faoliyatida shakllangan arxiv hujjatlarini jamlash, saqlash, hisobga olish va ulardan foydalanish ishlarini amalga oshirish.

e) davlat organlari, yuridik shaxslar, belgilangan tartibda sanoat statistikasiga oid axborotlar bilan ta'minlash sohasida:

milliy va xorijiy foydalanuvchilarning keng ommasi uchun sanoat statistikasiga oid ko'rsatkichlarni maksimal darajada shaffofligi va oshkoraligini, xalqaro statistik to'plamlar uchun tayyorlanishini ta'minlash;

ommaviy axborot vositalarida joylashtirish uchun sanoat sohasida yuz berayotgan o'zgarishlarni ifodalovchi tahliliy ma'lumotlar va press-revizlar tayyorlash;

sanoat va energetika sohasini tavsiflovchi tezkor va sifatli statistik ma'lumotlarni tayyorlashni amalga oshirish;

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qarorlari ijrosi yuzasidan bo'lim vakolati doirasida yillik, choraklik va oylik statistik hamda tahliliy materiallarni tayyorlash;

sanoat va energetika statistikasiga oid statistik kuzatuvlar va rasmiy statistik ma'lumotlarni tarqatish bo'yicha tashkil etiladigan axborot-tushuntirish ishlarida ishtirok etish.

8. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

sanoat va energetika statistikasi sohasi uslubiyati, statistika ishlarini tashkil etish va ularni bajarish masalalari bo'yicha Statistika boshqarmasining tarkibiy bo'linmalari va hududiy statistika bo'limlariga yordam ko'rsatadi; jismoniy va yuridik shaxslarning yozma va og'zaki murojaatlarini o'z vaqtida va to'liq ko'rib chiqilishini, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda murojaat egalari javoblar tayyorlaydi;

boshqarma rahbariyatining topshiriqlari va foydalanuvchilarning so'rovlariga asosan sanoat va energetika statistikasi bo'yicha ma'lumotlar tayyorlaydi;

bo'limning uslubiy, iqtisodiy, tashkiliy va statistik ishlari rejalarini shakllantiradi va ularning ijrosini ta'minlaydi;

bo'lim vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha tizimlashtirilgan elektron ma'lumotlar bazasining yaratilishi va yuritilishini, uning muntazam ravishda to'ldirilib va yangilanib borilishini ta'minlaydi;

Statistika boshqarmasi rahbariyati ko'rib chiqishi uchun tahliliy va boshqa materiallarni tayyorlaydi;

sanoat va energetika statistikasi sohasi bo'yicha statistika kuzatuvlari shakllarini statistik ma'lumotlarni shakllantirish jarayoniga joriy etadi;

davlat idoralari, yuridik shaxslar, belgilangan tartibda sanoat statistikasiga oid statistik ma'lumotlar bilan ta'minlaydi;

bo'limning ish uslubini takomillashtirib boradi, fuqarolar murojaatlarini o'z vaqtida bajarilishini ta'minlaydi, bo'lim xodimlari tomonidan o'zlariga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishi bo'yicha mas'uliyatini oshirib boradi;

Boshqarmaning hududiy statistika bo'limlari bilan birgalikda sanoat va energetika statistikasi sohasida axborotlarni shakllantirish bo'yicha ishlarni tashkil etadi va muvofiqlashtiradi;

Statistika dasturining sanoat va energetika statistikasi qismi bo'yicha vazifalar ijrosini ta'minlaydi;

hududiy statistika bo'limlari tomonidan, sanoat va energetika statistikasi sohasiga oid statistika kuzatuvlarini yagona statistika uslubiyoti asosida tashkil etish ishlarini muvofiqlashtiradi;

sanoat va energetika sohasiga oid statistika hisobotlarini elektron shaklda taqdim etish va elektron hujjat aylanishi tizimini joriy qilish ishlarini tashkil etadi, bu yo'nalishda hududiy statistika bo'limlari faoliyatini muvofiqlashtiradi;

zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, sanoat va energetika statistikasi asosiy ko'rsatkichlarining takomillashtirilgan ma'lumotlar bazasini yuritadi;

Bo'lim o'ziga yuklatilgan boshqa funksiyalarni belgilangan tartibda amalga oshiradi.

3-bob. Bo'limning huquqlari va majburiyatlari

9. Bo'lim o'ziga yuklangan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Statistika boshqarmasining bo'limlari va hududiy statistika bo'limlaridan o'ziga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun zarur materiallar va ma'lumotlarni belgilangan tartibda so'rash va olish;

sanoat va energetika statistikasi sohasida ishlarni tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha boshqarma rahbariyatiga takliflar kiritish;

statistika kuzatuv shakllarini o'zgartirish va ularni taqdim etish tartibi, statistika kuzatuvlarini o'tkazish usullari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining idoraviy statistik kuzatuv shakllari bo'yicha takliflar berish;

hududiy statistika bo'limlari tomonidan sanoat va energetika statistikasi sohasida yagona siyosatni amalga oshirish ishlarini muvofiqlashtirish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan va boshqa yuridik shaxslardan (zarur hollarda ularning filiallaridan) statistika hisobotlarini belgilangan tartibda olish hamda ulardan statistika maqsadlarida foydalanish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlaridan sanoat va energetika statistikasiga oid ishlarni olib borish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni (ularni ishlab chiqishning istalgan bosqichida), shuningdek, ularga ilova qilinadigan tushuntirishlarni so'rash va olish;

sanoat va energetika sohasiga oid statistika kuzatuvlarining metodologiyasi va tashkil etilishi, shuningdek, rasmiy statistik axborotlar bilan bog'liq masalalar bo'yicha axborot va tushuntirish ishlarini olib borish;

sanoat va energetika statistikasiga oid ma'lumotlarning to'liqligi, ishonchliligi va xolisligini ekspertizadan o'tkazish;

sanoat va energetika statistikasi sohasidagi statistika ma'lumotlarida buzilishlar aniqlangan taqdirda, ularni bartaraf etish bo'yicha ko'rsatmalar berish va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritish;

Statistika boshqarmasining ish rejaları, bo'limning ish rejasining tuzilishi va mazmuni bo'yicha boshqarma rahbariyatiga takliflar kiritish;

bo'lim vakolatiga kiradigan masalalar bo'yicha boshqarma bo'limlari bilan hamkorlik qilish.

10. Bo'lim quyidagi majburiyatlarga ega:

o'ziga yuklangan vazifalarni samarali va lozim darajada bajarish;

vakolatiga kiruvchi tahliliy va boshqa materiallarni yuqori darajada tayyorlash;

statistika prinsiplariga amal qilish, ilg'or xalqaro amaliyotga muvofiq, foydalanilayotgan usullar va metodikalarni doimiy ravishda takomillashtirish;

Bo'lim xodimlari tomonidan belgilangan normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq ijro intizomini ta'minlash.

4-bob. Bo'limning tuzilmasi

11. Bo'limning tuzilmasi o'z ichiga bo'lim boshlig'i va bosh mutaxassisi kiradi.

12. Bo'lim va uning tarkibiga kiruvchi mutaxassisiga bo'lim boshlig'i rahbarlik qiladi.

13. Bo'lim boshlig'i, bosh mutaxassis boshqarma boshlig'i tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimdan ozod qilinadi.

14. Sanoat ishlab chiqarishi sohasida statistik kuzatuvlar bo'limi quyidagilarni amalga oshiradi:

sanoat ishlab chiqarishi statistikasi bo'yicha (kuzatuv shakllari va yig'ma tahliliy jadvallar namunasi, ko'rsatkichlarni hisoblash metodikasi, ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha dasturiy ta'minotlarni ishlab chiqish va takomillashtirish uchun texnik topshiriqlarni tayyorlash) statistik instrumentariylarni shakllantirish;

sanoat ishlab chiqarishi statistikasi bo'yicha ma'lumotlarni Statistika dasturida belgilangan ishlar va muddatlar bo'yicha yig'ish, qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish, saqlash, chop etish va tarqatish;

sanoat ishlab chiqarishi sohasi bo'yicha muhim indikatorlarni baholash va hisob-kitobini yuritish, barqaror rivojlanish maqsadlari indikatorlari uchun ma'lumotlar tayyorlash;

sanoat va energetika sohasida maqsadli dasturlarning amalga oshirilishi bo'yicha oylik, choraklik va yillik statistik hamda tahliliy ma'lumotlarni tayyorlash va taqdim etish;

tahliliy jadvallar, press-revizlar, ma'ruzalar va statistik to'plamlarni tayyorlash, sanoat sohasi masalalari bo'yicha xalqaro tashkilotlar savolnomalarini to'ldirish;

dinamik qator ko'rsatkichlarini yuritish;

ma'lumotlar taqdim etish va axborot-tushuntirish tadbirlarini qilgan holda respondentlar va axborot foydalanuvchilari bilan o'zaro hamkorlikda faoliyat olib borish;

respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish ko'rsatkichlarini va xalqaro statistik to'plamlar materiallarini qo'shgan holda sanoat va energetika sohasida

tahliliy ma'lumotlarni shakllantirish jarayonida mahalliy va xorijiy foydalanuvchilar keng doirasi uchun statistik ma'lumotlarni imkon darajasida shaffofligi va oshkoraligini ta'minlash;

energetika statistikasi bo'yicha ma'lumotlarni Statistika dasturida belgilangan ishlar va muddatlar bo'yicha yig'ish, qayta ishlash, umumlashtirish, tahlil qilish, saqlash, chop etish va tarqatish;

hududiy statistika organlari tomonidan energetika statistikasi sohasiga oid statistika kuzatuvlarini yagona statistika metodologiyasi asosida tashkil etish ishlarini muvofiqlashtirish;

energetika statistikasi bo'yicha statistika hisobotlari shakllari va kuzatuv so'rovnomalarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlash;

energetika statistikasi bo'yicha ma'lumotlarning mahalliy va xorijiy foydalanuvchilar uchun ochiqligini ta'minlash hamda xalqaro statistika tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish.

5-bob. Bo'limning faoliyatini tashkil etish

15.Bo'limning ishi O'zbekiston Respublikasining "Rasmiy statistikasi to'g'risida"gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika dasturi, Milliy statistika qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadigan Statistika ishlarini ishlab chiqish dasturi, Milliy statistika qo'mitasi to'g'risida nizom, mazkur nizom, qo'mita rahbarining buyruqlari va topshiriqlariga muvofiq, shuningdek, qo'mitaning ish rejalari, boshqarmaning ish rejalari va boshqarma xodimlarining funksional vazifalari asosida tashkil etiladi.

Bo'limning ish rejasi Statistika boshqarmasi tomonidan tasdiqlanadigan ish rejalari asosida shakllantiriladi va tasdiqlanadi. Xodimlarning funksional vazifalari bo'lim boshlig'i tomonidan bo'lim mutaxassisiga yuklangan vazifalardan kelib chiqqan holda tayyorlanadi va tasdiqlanadi.

16. Bo'lim boshlig'i:

Bo'lim xodimlari o'rtasida ularning lavozim yo'riqnomalariga muvofiq vazifalarni taqsimlaydi va ularning ishini muvofiqlashtiradi, bo'limga yuklangan vazifalar va funksiyalarning bajarilishi uchun shaxsan javob beradi;

Statistika boshqarmasi va bo'lim ish rejalari ko'zda tutilgan masalalarni o'rganilishini va chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

bo'lim faoliyatini xalqaro tavsiyalar, shu jumladan sifatni boshqarishning milliy modellari (GSIM, GSBPM, GAMS0) hamda ilg'or xorijiy tajribalardan foydalangan holda tashkil etadi;

bo'lim mutaxassislari tomonidan ma'lumotnoma, tahliliy, statistik va boshqa materiallarni, shuningdek, bo'limga yuklangan vazifalar bo'yicha qonun hujjatlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini sifatli va o'z vaqtida tayyorlanishini tashkil qiladi;

sanoat va energetika sohasi bo'yicha statistik axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, umumlashtirish va saqlashning zamonaviy usul va uslubiylarini keng joriy qilgan holda statistik kuzatuvlarni tashkil etish va umume'tirof etilgan xalqaro amaliyotga moslashtirib borish, statistika hisobotlari shakllari va kuzatuv

so'rovnomalarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi hamda rahbariyatga kiritadi;

boshqarma boshlig'i bilan birga bo'lim faoliyatini takomillashtirish Statistika dasturini, Statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturini shakllantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

bo'lim ishlarining samaradorligi darajasini oshirish uslubi va metodlarini, uni tashkil qilishni yaxshilash, hisobot, ijro va mehnat intizomini mustahkamlash bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha boshqarma bo'limlari va hududiy statistika bo'limlariga maslahat yordamini ko'rsatadi;

xodimlar tomonidan davlat va tijorat siriga rioya qilinishini hamda bo'limga kiruvchi materiallarni va bo'limdan chiquvchi materiallarning nusxalarini saqlanishini ta'minlaydi;

bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalarni muhokama qilishda qonunchilik hujjatlariga muvofiq idoralar, korxonalar va tashkilotlarda Milliy statistika qo'mitasi manfaatlarini ifodalaydi;

bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan elektron shaklda kelib tushgan murojaatlarni ko'rib chiqilishini (zarur hollarda jismoniy shaxslar va yuridik shaxslarning vakillari ishtirokida) tashkil qiladi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq, boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

Bo'lim boshlig'i vaqtinchalik bo'lmagan taqdirda uning vazifasini bosh mutaxassis bajaradi.

17. Bo'lim bosh mutaxassisi:

Bo'lim faoliyatiga xalqaro tavsiyalar, shu jumladan sifatni boshqarishning milliy modellari (GSIM, GSBPM, GAMSO) hamda ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etishda ishtirok etadi;

funksional vazifalariga muvofiq ma'lumotlar, materiallar, takliflar va hujjatlar loyihalarining sifatli, ishonchli va o'z vaqtida tayyorlanishi uchun shaxsan javob beradi;

bo'lim mutaxassisi tomonidan tahliliy jadvallar, press-revizlar, ma'ruzalar va statistik to'plamlarni tayyorlanishini, shuningdek, bo'limga yuklangan vazifalar bo'yicha qonun hujjatlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini sifatli va o'z vaqtida tayyorlanishini tashkil qiladi;

Statistika boshqarmasi va bo'lim ish rejalarida tegishliligi bo'yicha ko'zda tutilgan masalalarni o'rganilishini va chora-tadbirlarning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

sanoat va energetika statistikasi bo'yicha statistik ko'rsatkichlarning ishonchliligi, obyektivligi, to'liqligi va tizimlilikini ta'minlaydi;

byulletenlar, to'plamlar, ma'ruzalar va iqtisodiy yozishma materiallar uchun statistik ma'lumotlar tayyorlaydi;

muhim statistik indikatorlarni baholanishini va hisob-kitobini yuritilishini ta'minlaydi;

sanoat va energetika bo'yicha muhim indikatorlarni baholash va hisob-kitobini yuritish va barqaror rivojlanish maqsadlari indikatorlari uchun ma'lumotlarni tayyorlanishini ta'minlaydi;

ilmiy jurnallar, xalqaro tashkilotlarning metodologik nashrlari va internet tarmog'idagi materiallarni o'rganish asosida statistika sohasidagi ilg'or xorijiy tajribani rivojlantirish va statistika amaliyotiga joriy etish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

statistika hisobotlari shakllari va kuzatuv so'rovnomalarini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlaydi;

statistik ma'lumotlarni sharhlash, statistik kuzatuv blankalarini to'ldirish masalalari, ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash uslublari, statistik hisob-kitoblar o'tkazish, olingan ma'lumotlarning ishonchligini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha maslahatlar beradi;

statistika kuzatuvlarining elektron ma'lumotlar bazasi saqlanishini va asosiy statistik ko'rsatkichlar bo'yicha dinamik qatorlar yuritilishini ta'minlaydi;

asosiy statistik ko'rsatkichlarning dinamika qatorlarini yuritadi va doimiy ravishda yangilab boradi;

statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, saqlash va taqdim etish bo'yicha dasturiy ta'minotlarni sinovdan o'tkazishda ishtirok etadi;

bo'lim boshlig'ining topshirig'iga muvofiq, jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini, shu jumladan elektron shakldagi murojaatlarni, ko'rib chiqish uchun zarur materiallarni tayyorlaydi, ularda ko'rsatilgan masalalarni hal qilish bo'yicha loyihani tayyorlaydi;

statistika dasturida belgilangan ishlar hajmini baholash uchun zarur bo'lgan materiallarni tayyorlaydi;

bo'lim vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha boshqarma mutaxassislariga, hududiy bo'limlarga, tashkilot va korxonalarga maslahat yordamini ko'rsatadi;

rahbariyatning topshiriqlariga muvofiq, joriy ishlarni bajaradi;

vazifalar taqsimlanishiga muvofiq, boshqa funksiyalarni amalga oshiradi.

ish yuritishni olib boradi, bo'limda hujjatlarning o'tish tartibini tashkil qiladi, hujjatlarni arxivda saqlash uchun tayyorlaydi, o'z vaqtida topshirilishini ta'minlaydi va shaxsan javobgar bo'ladi;

Yazaneb U

Davreba U

Shirvan